

SO‘Z QO‘LLASHNING IJTIMOIIYIY HAMDA BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i01.022>

Ahmedova Hikmatxon Tursunovna
hikmat1001.doc@gmail.com
Qo‘qon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada insoniyat tomonidan yaratilgan ulkan so‘z san’ati namunalari e’tiborga olingan. Ularda insonning ongi va tafakkuri mahsuli bo‘lgan so‘z mohiyati, uni qo‘llash xususiyatlari, so‘z qo‘llashning ijtimoiy hamda badiiy-estetik xususiyatlari atroflicha tahlil etilgan. Ularda so‘zning ijtimoiy hayotda, odamlar orasidagi muloqotlar jarayonidagi ijtimoiy ahamiyati, bundagi aniq amaliy tavsiya va yo‘riqlarga juda keng o‘rin ajratilgan. Ular zamiridagi ulkan ma’rifiy haqiqatlar, so‘z qo‘llash borasidagi betakror va munosib amaliyot bugungi o‘quvchilarimiz uchun ham o‘rnak va namuna maktabi bo‘la olashi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, so‘z san’ati, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari, B.O‘rinboyev va A.Soliyevning “Notiqlik mahorati”, R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatov, Yo.Tojiyevning “Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari”, T.Qudratovning “Nutq madaniyati asoslari”, M.Mirtojiyev va N.Mahmudovning «Til va madaniyat», Nizomiddin Mahmudov «Ma’rifat manzillari” va “O‘qituvchi nutqi madaniyati” asarlari

SOCIAL AND ARTISTIC-AESTHETIC FEATURES OF WORD USE

Ahmedova Hikmatkhon Tursunovna
hikmat1001.doc@gmail.com
Kokand State University

Abstract: This article explores outstanding examples of the great art of language created by humanity. It provides a comprehensive analysis of the essence of the word as a product of human intellect and thought, its usage features, and the social as well as artistic-aesthetic characteristics of speech application. Special attention is given to the social significance of language in public life and interpersonal communication, along with practical recommendations and guidance found in the referenced works. It is emphasized that the enlightening truths and unique practices of speech mastery contained in these works can serve as exemplary models and educational resources for today’s readers.

Keywords: speech culture, art of language, *Dīwān Lughāt al-Turk* by Mahmud al-Kashgari, *Oratory Skills* by B. Urinboev and A. Saliev, *Foundations of Speech Culture and Stylistics* by R. Qong'urov, E. Begmatov, and Yo. Tojiyev, *Fundamentals of Speech Culture* by T. Qudratov, *Language and Culture* by M. Mirtojiev and N. Mahmudov, *Stations of Enlightenment* and *Teacher's Speech Culture* by Nizomiddin Mahmudov

Kirish.

Nutq madaniyati jamiyat madaniy - ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Butun insoniyat yaratgan ulkan madaniy merosni mustaqillik mafkurasi asosida o'rganish, ularning bag'rida mujassamlashgan ko'plab adabiy-estetik hodisalarni zamonaviy fan yutuqlariga tayangan holda jiddiy tadqiq etish, ayniqsa, milliy-ma'naviy qadriyatlarni puxta tahlil qilish, shular asosida yoshlarimizning dunyoqarashini kengaytirish, ularning badiiy-estetik didlarini, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan mehr-muhabbatlarini shakllantirish va rivojlantirish ham eng muhim vazifalar qatorida turibdi. Mazkur vazifalarni bajarishda, ularni reallikka aylantirishda nutq madaniyatining juda katta imkoniyatlari mavjud. Nutq madaniyatiga oid bir qancha darslik va qo'llanmalar, monografiya va risolalar yozilgan. Ular bizgacha ham og'zaki, ham yozma tarzda yetib kelgan. Zero, ularda milliy va umuminsoniy madaniyatning va ma'naviyatning juda ulkan namunalari mujassamlashgan. Qolaversa, so'z san'atining jahonga mashhur bo'lgan yuksak namunalarning bevosita Sharq xalqlari ma'naviy merosiga bog'liq holda yuzaga kelganligini ham e'tirof etish joiz.

Adabiyotlar tahlili. Birgina Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari bu jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. O'n birinchi asrda yaratilgan bu muhtasham obida o'zigacha bo'lgan barcha og'zaki va yozma an'analardan puxta oziqlangan holda, o'z zamonasining eng dolzarb muammolariga ilmiy, tarixiy, adabiy, badiiy-estetik yo'nalishlardagi javob tariqasida yuzaga kelgan. Undan joy olgan materiallarning katta qismi so'z san'atining nodir namunasi bo'lishi bilan birga notiqlik san'atining ham bebaho durdonalaridir. Asarda so'zning ijtimoiy-estetik qadriyatini haqida favqulodda teran qarashlar nihoyatda go'zal badiiy shakllarda o'z ifodasini topgan. Unda so'zning ijtimoiy hayotda, odamlar orasidagi muloqotlar jarayonidagi ijtimoiy ahamiyati, bundagi aniq amaliy tavsiya va yo'riqlarga juda keng o'rin ajratilgan.

Yoki Alisher Navoiy yaratgan ulkan so'z san'ati namunalariga e'tibor beraylik. Ularda insonning ongi va tafakkuri mahsuli bo'lgan so'z mohiyati, uni qo'llash xususiyatlari, so'z qo'llashning ijtimoiy hamda badiiy-estetik xususiyatlari atroflicha tahlil etilgani yaxshi ma'lum. Ular zamiridagi ulkan ma'rifiy haqiqatlar, so'z qo'llash

borasidagi betakror va munosib amaliyot, nazarimizda, bugungi o'quvchilarimiz uchun ham o'rnak va namuna maktabi bo'la oladi.

Biz xalq og'zaki ijodida yaratilgan ulkan ma'naviy meros imkonlaridan haligacha to'la va unumli foydalana olayotganimiz yo'q. Vaholanki, faqat nutq va notqlik haqidagi xalqona qarashlar mohiyatini teran tadqiq etish, bu borada ham ulkan zahiralarimiz mavjudligini ko'rsatib turibdi. Shuning uchun ham bu ulkan merosda mujassamlashgan notqlik tarixi, nutq madaniyati, notqlik san'ati haqidagi badiiy-estetik qarashlarni yagona tizim sifatida o'rganish vaqti keldi.

Hozirgacha qator filologik hamda pedagogik adabiyotlarda nutq madaniyatiga doir qimmatli fikr-mulohazalar bildirilganini e'tirof etish kerak. Jumladan, B.O'rinboyev va A.Soliyevning "Notqlik mahorati" kitobi notqlik sohasida dastlabki izlanishlardan edi[1]. Uning avvalgi qismlarida til, nutq madaniyati ilmlaridan ko'ra, o'sha davr talablariga uyg'un tarzda sobiq mafkuraviy targ'ib prinsiplariga ko'proq tayanilganini ham qayd etish joiz.

Kitobning "Notqlik san'ati tarixidan. Antik notqlik" bobida ayrim o'rinli fikrlar, yunon notqlari Perikl, Demosfen, Lisiy, Rim notqlari Georgiy, Mark Tulliy, Sitseron, Kvintilian haqida ixcham ma'lumotlar berilgan. Kitobdan Qadimgi Sharq pedagogik qarashlari haqida (Forobiy, Ibn Sino, "Qobusnoma", Alisher Navoiy) ham ma'lumot joy olgan.

R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Yo.Tojiyevning "Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari"[2] o'quv qo'llanmasida adabiy til, uning norma (me'yor)lari, nutqning asosiy xususiyatlari (to'g'riligi, aniqligi, muloqot imkoniyati, mantiqiyliqi, tozaligi, ta'sirchanligi, nutq madaniyati va uslubiyat masalalari) haqida fikr yuritiladi. Kitobning "Nutq madaniyatini egallashning usul va yo'llari" bobida mualliflarning metodik tavsiyalari ancha mazmundor yozilgan. Kitobda «Nutq madaniyati va notqlik san'ati» degan alohida fasl ham mavjud. Mualliflar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "Notqlik qadimiy davrlardan beri alohida mahorat, san'at sifatida, insondagi maxsus, noyob qobiliyat tarzida talqin etib kelinadi. Shu tufayli notqlikni (ular orasidagi bog'liqlikni inkor etmagan holda) nutq madaniyatidan farqlash lozim. Har qanday og'zaki nutq shakli nutqiy mahorat ma'nosidagi notqlik bo'lavermaydi. So'zlash madaniyati haqida gap yuritiluvchi va hatto lektorlar, targ'ibotchilarga (bular orasida ham haqiqiy ma'nodagi notqlar kam uchraydi) mo'ljallangan asarlar ham, bizningcha, «Notqlik san'ati» nomi bilan atalavermasligi kerak»[3]. T.Qudratovning "Nutq madaniyati asoslari" kitobi ham bu boradagi dastlabki yaxshi izlanishlar sirasiga mansub[4].

Pedagog olimlar jamoasi tomonidan yozilgan "Pedagogika tarixi" o'quv qo'llanmasida[5] ta'lim-tarbiya jarayonlarining rivojlanish tarixidagi asosiy bosqichlar ko'rsatilishi bilan birga, pedagogika tarixida nutqiy barkamollikka berilgan e'tibor haqida ham ayrim mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, o'tgan asrning 60- yillaridan

buyon yaratilgan qo'llanmalarning ko'pchiligida rus tilidagi "Основы культура rechi", "Kultura rechi" singari kitoblardan qolip olingan, ana shu kitoblarda berilgan tushunchalar o'zbekcha misollar bilan izohlangan edi.

Milliy madaniyatimiz ravnaqi yo'lida muhim ahamiyatga ega bo'lgan, madaniy nutq tarbiyasi sifatini ta'minlovchi bu hodisa tilshunos N.Mahmudovning ham diqqat markazida bo'lgan.

M.Mirtojiyev va N.Mahmudovning "Til va madaniyat"[6] kitobida o'zbek tilining davlat tili maqomini olgunicha bo'lgan mashaqqatli yo'lining turli bosqichlari ijtimoiy-siyosiy, pedagogik, tarixiy va tilshunoslik nuqtayi nazaridan ancha batafsil yoritib berilgan. Ayniqsa, "Atamalarni sof o'zbekcha qilish yo'lida", "So'z va unga muhabbat", "So'z va hikoya", "So'z va kuzatuvchanlik", "Har so'zning o'z o'rnini bor" deb atalgan fasllar nutq madaniyatiga bevosita aloqador bo'lgan qimmatli fikrlar boyligi bilan ajralib turadi.

Nizomiddin Mahmudov "Ma'rifat manzillari"[7] kitobida til va madaniyat, ta'lim va muallim, rostgo'ylik, madaniy nutq tarbiyasi haqida muhim fikr-mulohazalarni bildiradi. Uning "O'qituvchi nutqi madaniyati" (Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007; 2009-yil) kitobi mazkur yo'nalishdagi eng yangi va mukammal tadqiqotdir. Unda nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi, sofligi, ifodaliligi, nutq boyligi, jo'yaliligi kabi asosiy tushunchalar o'qituvchi nutqiga bog'liq sodda, obrazli tilda keng yoritib berilgan. Shuningdek, hozirgi o'zbek adabiyotidan olingan parchalar asosida dalillanadi.

Metodologiya. N.Mahmudovning "O'qituvchi nutqi madaniyati" darsligida o'zigacha bo'lgan barcha og'zaki va yozma an'analardan puxta oziqlangan holda, o'z zamonasining eng dolzarb muammolariga adabiy javob tariqasida yuzaga kelgan. U so'z san'atining nodir namunasi bo'lishi bilan birga notiqlik san'atining ham bebaho durdonasidir. Asarda so'zning ijtimoiy-estetik qadr-qimmati haqida favqulodda teran qarashlar nihoyatda go'zal badiiy shakllarda o'z ifodasini topgan. Unda so'zning ijtimoiy hayotda, odamlar orasidagi muloqotlar jarayonidagi ijtimoiy ahamiyati, bundagi aniq amaliy tavsiya va yo'riqlarga juda keng o'rin ajratilgan.

N.Mahmudovning mazkur darsligi muloqot madaniyatining o'ziga xos qomuslaridan biridir. Unda tilshunosning nutq odobi, notiqlik madaniyatining bir qator o'ziga xos xususiyatlari, me'yori va mezonlari haqidagi qarashlar ham o'z aksini topgan. U umumxalq tili haqida "O'z go'zalligini qanday bo'lsa, shundayligicha asrlar osha asragan, ataylab pardoatlanmagan, me'yorlardan, qat'iy qoidalar zanjiridan ozod, muayyan hududga mansub goh behad nozik, gohida mundayroq o'ziga xosliklarni, ya'ni shu til doirasidagi barcha shevalarni ham qamragan tildir"[8]. Adabiy til haqida "Adabiy til esa ana shu xalq tilining ... tarbiyasi, ko'rkli va komil yagona "farzandi" dir. O'zbek adabiy tili o'zbek xalq tili zaminida tarkib topgan, u xalq tilining tegishli qonuniyatlari asosida me'yorlashtirilgan, sayqallangan, oro berilgan shaklidir"[9].

“Adabiy me’yor til unsurlaridan til sistemasi qonuniyatlariga uyg’un, jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida barqarorlashgan ijtimoiy-nutqiy amaliyot va an’anaga muvofiq holda foydalanish qoidalari” sifatida izohlandi [10].

Olimning insonning nimani so‘zlashi, qanday so‘zlashi va qay miqdorda so‘zlashi bilan bog‘liq qarashlari ham juda ta’sirli. Bu muammo N.Mahmudovning asarida o‘ziga xos tarzda kun tartibiga qo‘yilgan va boshqa biror adibda uchramaydigan shakllardagi yechimlari ham taqdim etilgan. Jumladan, asarda “Bizning yurtimizda axloq serqamrov, mag‘zi to‘q va qiyosi yo‘q tushuncha sifatida azaldan jamiyatdagi muvozanat va osoyishtalikning asosiy omili bo‘lib kelgan. Ma’nili va bejirim gapira bilish, nutq zanjiridagi maqbul va nomaqbul halqalarni ilhay olish, so‘zning orqa o‘ngini, o‘z munosib o‘rnini farqlay bilish, nutqiy fahmu farosat, nozik nutq odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqining, ma’naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan. Hatto aytish mumkinki, chin so‘z sezgisi inson komilligini tayin etuvchi fazilatlarning boshida turgan”[11].

Natija. Adib tilni eng muhim aloqa vositasi sifatida baholar ekan, asosiy urg‘uni uning ijtimoiy ahamiyatiga beradi. Til, tildagi so‘z inson qalbining tarjimoni, uning qalbidagi asosiy fikrlarni, o‘y va tushunchalarni boshqalarga yetkazish vositasidir. Insondagi so‘zlash qobiliyati uning shaxs sifatidagi o‘ziga xosliklarini namoyish etish imkoni hamdir. Ana shu imkoniyat orqali u o‘z bilimlarini namoyish eta oladi. Agar u so‘zlamasa, uning bilimlari boshqalarga noayonligicha qolib ketaveradi. Tildan shikoyat qilish nojoiz. Uning maqtoqli jihatlari nihoyatda ko‘p. Ammo unda insonni noshoista holatlarga solish imkoni ham yo‘q emas. Shuning uchun ham bu borada tegishli me’yorlarni bilish joiz. Demak, til ko‘ngil tarjimonidir. Shuning uchun ham inson uchun eng mo‘tabar narsa uning tili va dilidir.

Shunday ekan, nima qilmoq kerak?

“O‘zbek - so‘zning bebaho va muqaddasligiga hamma zamonlarda imon keltirgan, hech qachon o‘z so‘zidan tonmagan, lafziga munkir kelmagan, so‘zni o‘z farzandi kabi oq yuvib, oq taragan xalq. Shuning uchun ham o‘zbek ajdodlar hikmatiga amal qilib, o‘ynab gapirsa ham, o‘ylab gapiradi. Hamisha qopib emas, topib gapirishning payidan bo‘ladi. So‘zga oshuftalik, nutqning latifligidan, undagi so‘zlarning favqulodda uyg’unligidan zavqlanish, go‘zal va ta’sirli nutq tuzishga ayrica havas, bunday san’at sohibiga hayrat bilan qarash o‘zbeklarning azaliy urflaridandir. Aytilmoqchi bo‘lgan fikrga mutloqo mos libos kiydira bilish, so‘z bilan tinglovchining faqat qulog‘ini emas, balki qalbini ham zabt eta olish Sharqda, xususan, o‘zbeklarda tarbiyalanganlikning, ma’rifatlilikning, ziyolilikning qabariq belgilaridan biri hisoblangan”[12].

Xulosa. N.Mahmudovning “O‘qituvchi nutqi madaniyati” kitobi shunday shirali, jonli tilda yozilib, kitobda keltirgan qoidalar amalda o‘z isbotini topgan. Ya’ni

insonlarda hayrat va havas uygʻota oladigan nutqqa misol boʻla oladi. Kitobning tili esa madaniy nutqning oliy namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻrinboyev B., Soliyev A “Notiqlik mahorati”. - T., “Oʻqituvchi” 1984. B.24-30
2. Qoʻngʻurov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. - T. 1992.
3. Qoʻngʻurov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. - T. 1992, B.140.
4. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. - Toshkent, 1993.
5. Xashimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. - T., “Oʻqituvchi”, 1996. B.1-446
6. Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. - Toshkent, “Oʻzbekiston”, B. 61-104
7. Mahmudov N. Maʼrifat manzillari T., “Maʼnaviyat”. 1999. B.1-64
8. N.Mahmudovning “Oʻqituvchi nutqi madaniyati” Toshkent: A.Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009-yil B.43
9. N.Mahmudovning “Oʻqituvchi nutqi madaniyati” Toshkent: A.Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009-yil B.43
10. N.Mahmudovning “Oʻqituvchi nutqi madaniyati” Toshkent: A.Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009-yil B.43
11. N.Mahmudovning “Oʻqituvchi nutqi madaniyati” Toshkent: A.Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009-yil B.6
12. N.Mahmudovning “Oʻqituvchi nutqi madaniyati” Toshkent: A.Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009-yil B.12